

*Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi va tilshunoslikning kelajagi. – Toshkent: Akademyashr, 2020. – 180 b.
2. Xolmanova Z. Tilni avtomatik qayta ishlash. – Toshkent: Fan, 2018. – 156 b.
3. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Akademyashr, 2011. – 128 b.
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Toshkent: Ta'lim, 2009. – 160 b.
5. Kuriyozov E., Mengliev B. et al. Uzbek language in the digital age: challenges and perspectives // Tandfonline. – 2025.
6. Abduraxmonova N., Boysariyeva S. Tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) okkazonalizmlarning morfem tahlili // Science and innovation. – 2023. – Vol. 2. – No. 8.
7. Eshmatova M. Linguistic models of relational constructions in the parallel corpus of the Uzbek language // Science and Innovation. – 2026. – Vol. 4. – No. 12.
8. Nurullayev M. Kompyuter terminlarining derivatsion tadqiqi // Science and innovation. – 2022. – Zenodo: 7125800.
9. Kadirbekova D.X. Ingliz va o'zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 140 b.

---

**Sharafutdinova Nilufar Xursandovna**

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

nilusharafutdinova1973@gmail.com +998903005358

<https://orcid.org/0009-0003-5405-9550>



---

**FIGURAL TEONIMLA LINGVOPOETIKASI**

<https://zenodo.org/records/18780224>

**Annotatsiya.** Maqolada mifologik personajlar bo'lmish Hur va Pari go'zalliklari asosidagi ko'chim bilan Yarayguvchi tushunchasining ifodlanishi, teonimik ma'no ifodalashda obrazli-metaforik ko'chim va badiiy-estetik tafakkurning or'ni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** figural, teonim, mifik, obrazli-metaforik, badiiy, estetik, personaj.

**LINGUPOETICS OF FIGURAL THEONIMS**

**Abstract.** The article discusses the expression of the concept of the Creator through metaphorical transfer based on the beauties of the mythological characters Hur and Pari, the role of figurative-metaphorical transfer and artistic-aesthetic thinking in expressing the theonymic meaning.

**Keywords:** figural, theonym, mythical, figurative-metaphorical, artistic, aesthetic, character.

## ЛИНГВОПОЭТИКА ФИГУРАЛЬНЫХ ТЕОНИМОВ

**Аннотация.** В статье рассматривается выражение концепции Творца посредством метафорического переноса на основе красоты мифологических персонажей Хура и Пари, роль образно-метафорического переноса и художественно-эстетического мышления в выражении теонимического значения.

**Ключевые слова:** образный, теонимический, мифический, образно-метафорический, художественный, эстетический, характер.

### **Kirish**

Figural teonimik leksik qatlam, o'zining nominal ma'nosini yo'qotmagan holda va shu nominal ma'no asosida Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi so'zlardir. Bu jihatdan, ya'ni nom ifodalash jihatidan figural teonim mantiqiy fikr yuritishning mahsuli sanaladi. Masalan, Hur mifologik talqinga ko'ra, "jannatdagi go'zal qiz" [5. 563]. Bu mifik personajga xos yetakchi xususiyat uning go'zalligi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Yaratguvchi tushunchasini ifodalash va uning o'zini nomlash uchun mana shu xususiyat asosga olinadi. Bunda interpretatsiya asosini go'zallik tushunchasi tashkil etadi. Figural teonimik leksik qatlamning vujudga kelishida obrazli-metaforik ko'chim eng sarmahsul yo'llardan birdir. Shu jihatdan qaraganda, nutq hodisasi sifatida, bu leksikon badiiy-estetik tafakkur faoliyatining mahsulidir. Bu jarayonda inson ongida mavjud bo'lgan jonli va jonsiz predmetlar nomlari Yaratuvchi tushunchasini ifodalash uchun qo'llanadi. Malak, hur kabi nomlar mifologik personajlar uchun qo'llanilgan bo'lib, ular go'zal tashqi ko'rinishi va xarakteri jihatdan insonlardan farqlanuvchi obrazlardir. Ushbu personajlar mifologik tafakkur mahsuli sanaladi. Badiiy-estetik tafakkur orqali obrazli-metaforik ko'chim ifodasi bilan bu nomlar Yaratguvchiga nisbat beriladi. Bu o'rinda ham ko'chim asosida go'zallik tushunchasi yotadi.

Parilar ham go'zal yaralmish, Yaratguvchi ham go'zal. O'xshashlikka asoslangan bu obrazli-metaforik ko'chim badiiy-estetik tafakkur, badiiy idrok va his qilish bilan bog'lanadi.

Pari "O'zbek tiling izohli lug'ati"da "juda go'zal qiz qiyofasidagi, go'yo nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz" ma'nosi bilan mifga bog'lab izohlansa, ko'chma ma'nosi "juda go'zal, xushro'y qiz; nozanin" ma'nosida talqin etiladi [5.222]. Izohda tashqi qiyofa bilan birga, uning funksiyasi (kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan) ham qayd etilgan.

Ey pari, ruxsor ochib, devona qilmay qo'ymading,  
Xalq arosida yana afsona qilmay qo'ymading.

Ey pari, ko'nglum olib, qon o'ldig'in bilmasmusen?  
Dard berding menga darmon o'ldig'in bilmasmusen?

Muqimiy

Bu so'z Yaratuvch tushunchasining ifodalanishida sifat vazifasi bilan ham qo'llanadi.

Ahli olam jumla bo'lgay telbayu shaydoliq'im,  
Sen qalamqosh, ko'zlari jodu, pari ruxsor uchun.

Muqimiy

Keltirilgan satrlardagi pari ruxsor birikmasida Yaratguvchi tushunchasi ifodalangan. Bu birikmadagi pari so'zi ruxsor so'zining aniqlovchisi vazifasida kelgan. Agar ruxsor so'zi alohidalikda Yaratguvchi tushunchasini ifodalay olmasligidan kelib chiqilsa, birikma barqarorlashgani, ya'ni bir butun holda Yaratguvchi tushunchasini ifodalashi ma'lum bo'ladi.

Pari soʻzi esa alohidalikda ham Yaratguvchi tushunchasini anglatadi. Demak, Yaratguvchi tushunchasini anglatishda pari yetakchi soʻzdir. Shuningdek, pari “jussa, gavda, vujud, surat, shakl, koʻrinish, yuz, chehra, jamol” [5. 563] kabi alohidalikda Yaratguvchi tushunchasini ifodalamaydigan soʻz yaʼni paykar bilan bir birikma vujudga kelishida qatnashadi va Yaratguvchi tushunchasini ifodalashda yetakchi rol oʻynaydi.

Yiroqdin aylanolmay dogʻ dadurman, ey pari paykar,  
Borib endi mening-chun ushbukim paygʻom aylansun.

Muqimiy

Pari soʻzi yetakchiligining boisi uning goʻzalligida. Bu goʻzallikning manbai esa Oʻzi bilan bogʻlanadi.

Voqif ermas kishi sening aslingdin,  
Tokim desam pari sening naslingdin.  
Qodariqʻo, judo boʻldim vaslingdin,  
Oʻzim har joydaman, koʻnglum sandadur.

Muqimiy

“Til grammatika va filologiyaga qaraganda keng va oʻlchab boʻlmas hodisadir. Bu xalq ruhining, madaniyatining poetik vasiyati, ular taʼsiri ostida boʻy olgan fikr va obrazlarning tipik timsoli. Agar bu qadimiy mazmun zamiriga yetib bormoqchi boʻlsak, oʻtgan zamonlarda shu tilda gaplashgan odamlar fikrlarini anglab yetmoqchi boʻlsak, maʼlum maʼnoda romantik va poetik yondashuvlar zarur boʻladi ...” [3. 161].

Iqomat qilding, Boburo, ul hur koʻyida,  
Maqoming ravzadin avlo, oʻzing rizvondin ortuqsen.

Yaratguvchi tushunchasini ifodalashda hur soʻzi qoʻllanganidek oʻxshatishni ochiq taʼkidlash uchun hurvash soʻzi ham qoʻllanadi.

Sonuram oʻlmasmukin maqbul deb, ey hurvash,  
Boʻlmasa qiblai agar mehrobi obroʻying namoz.

Kobk ila tovus raftorigʻa magʻrur oʻlmasun,  
Hurvash, yuz nozlar birlan xirom etsang ketar.

Muqimiy

### **Natija va muhokama**

Romantik tasavvurlar, poetik mushohadalar bilan qiyofalantirilgan pari haqidagi qarashlar juda qadimdagi mifologik tafakkur yoʻsinlariga ulanadi. Bu qarashlarga muvofiq, parilar goʻzal qiz yoki ayol qiyofasida suv havzalarida (daryo, ariq, soy, koʻl, quduq) ham yashaydilar deb tasavvur qilinadi [6. 8]. Ular ayol qiyofasida oʻz goʻzalliklari bilan odamlarni aldaydilar, yoʻldan adashtiradilar, baʼzan ezguliklar qiladilar, biroq ong, aqldan ham ozdiradilar. Shuningdek, ilohiy timsol tarzida ham qiyofalantiriladi. Turkiy xalqlarda koʻproq inson – erkak qiyofasida ham, ayol qiyofasida ham tasavvur qilinadi, deb belgilanadi. Lekin oʻzbek folklorida, asosan, ayol sifatida gavdalanadi.

Maʼlumki, oʻzbek tilida jins ifodalovchi grammatik vositalar yoʻq. Biroq qadimgi turkiy bitiklarda Tangri, antropomorf suratda qiyofalantirilmagan holda, yuksaklikka ishorat belgisi hamda doimiy yoʻldoshi tarzida birga qoʻllanadigan xoqon epiteti bilan erkak jinsiga, Umay nomi bilan ayol jinsiga kiritiladi. Oʻxshatishlarda xoqon va xotin soʻzlari qoʻllanadi: koʻkka monand xoqon ota, Umayga monand xotin ona... [4. 215]. Lekin figural teonimlar ayolga nisbat beriladigan soʻzlar orqali, shu soʻzlar maʼnolari asosida yaratiladi. Ayol esa barcha xalqlar tasavvurida qutbiy qarama-qarshilikda tasvirlanadi. Jumladan, hind miflarida rivoyat qilinishicha, Tvashtri (yaratuvchi iloh) ayolni yaratganda, unga quyidagi sifatlarni bergan holda bunyod etadi: oy toʻlinligini, yoyilib oʻsadigan oʻsimliklar nozikligini, pechak gul

murtchalarining tirishqoqligi va maysalarning nozik jilvalarini, nihol qayishqoqligi va gul malohatini, yaproqlar yengilligi va fil xartumi shaklini, ohu nigohi va asalarilar galasining birdamligini, quyosh nurlarining xushchaqchaq quvonchi, bulutlar ko'z yoshi va shamol o'zgaruvchanligini, quyon hurkakligi va tovusning o'ziga bino qo'yishini, to'ti ko'ksining yumshoqligi va olmos qattiqligini, asal shirinligi va yo'lbars shiddatini, olov otashi va qor sovug'ini, jiblabibon sergapligi va kaptar kukulashini, turna hiyonatkorligi va yovvoyi o'rdak sadoqatini olib va bularning hammasini aralashtirib, ayolni yaratgan [3. 161].

Bu sifatlari tasvirida hind xalqiga xos milliylik juda aniq ifodalangan. Fil xartumi va tovus mag'rurligi ham bu tasvirdan o'rin olishida hind milliy estetik tabiati ham aks etgan. Umuman, jahon xalqlari miflarida berilgan ta'riflar, chizilgan tasvirlar zahirida qadimgilarning o'ziga xos real baholari, falsafiy qarashlari, ruhiy-ma'naviy hamda badiiy-estetik baholari yotadi. Bir qarashda u ona, rizq beruvchi, homiy, barcha ezguliklarni o'zida jamlagan ezgulik majmuidan iborat go'zal deb, boshqa bir qarashlarda cheksizlik, qochib qutulib bo'lmas qudrat, dovul qushi, ya'ni ayol boshli yirtqich qush qiyofasidagi dovul ilohasi, alvasti sifat yovuz ruh [1. 17].

### **Xulosa**

O'zbek xalq og'zaki ijodida Yunus va Misqol personajlari nomiga go'zalligining manbai bevosita Yaratguvchining o'zidan bo'lgan pari epiteti qo'shib qo'llanadi. Bu bilan uning go'zalligi ta'kidlanadi. Go'ro'g'libek "tushida biri oy bo'lsa, biri kun; biri gul bo'lsa, biri g'uncha; biri asal bo'lsa, biri shakar – osmon bilan yerning oralig'ida Yunus pari bilan Misqol parini" ko'radi. Bu tushini aytganda, "bir necha joydan timsol keltirib, bir so'z" deydi. Bu so'zda parilarga quyidagi epitetlar nisbat beriladi:

Biri emish bu jahonning quyoshi,  
Boz biri qamarday aning tengdoshi ...  
Biri yoqut, bir gavhar ko'rindi.

Birining tushibdir sochi beliga,  
Biri rayhon tutib kelmish qo'liga.  
Olov yoqar boqib odam diliga,  
Biri shamsu bir qamar ko'rindi.

Go'zallikni yanada go'zallashtiruvchi, kuchaytiruvchi, bo'rttiruvchi, ta'kidlovchi bu epitelarga hulkar, dilbar sifatlari ham qo'shiladi. Shuningdek, "biri jodu, biri ayyor" ekanligi ham qayd etiladi.

Xullas, Hur va Pari mifologik personajlar bo'lib, ularning nomi go'zallik tushunchasini ifodalashi bilan teonimik ma'noda qo'llanadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Женщина в мифах и легендах. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1992. – С. 13, 15, 16, 17.
- 2.Мифологический словарь. – М.: СЭ, 1990. – С. 421; Каюмов О.С. Ўзбек фольклорига pari образи. – Тошкент, 1999. – 7-8 б.
- 3.Муқимий. Лолазор айлаб келинг. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.
- 4.Неру Дж. Открытие Индии. – М.: изд.политической литературы, 1989. – С. 160-161
- 5.Стеблева И.В. К реконструкции древнетюркской религиозно-мифологической системы. Тюркологический сборник. – М.: Наука, 1972. – С. 214-215.
- 6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. V жилд. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,

---

**Amanova Madina Khamid qizi**, trainee teacher, Jizzakh state pedagogical university

Orcid: 0009-0000-0244-0702 e-mail: [madina.97amanova@gmail.com](mailto:madina.97amanova@gmail.com)



---

## THE USE OF METAPHOR IN THE HOLY QUR'AN: A LINGUISTIC AND TRANSLATIONAL ANALYSIS IN UZBEK AND ENGLISH

<https://zenodo.org/records/18780301>

**Annotation:** This article analyzes the linguistic and cognitive nature of metaphors in the Qur'an and the specific features of their translation into Uzbek and English. Qur'anic metaphors are examined as important linguistic devices that express complex abstract concepts in figurative and conceptual forms. The study identifies the semantic structure of metaphors, their connection with national and cultural concepts, as well as cases of meaning loss, semantic shift, and conceptual mismatch that arise in the process of translation. Uzbek and English translations are investigated on the basis of comparative analysis, highlighting the problems of adequate rendering of metaphors. The article concludes with the main findings of the research. A total of ten sources are listed in the references.

**Keywords:** Qur'an, metaphor, linguistic analysis, translation studies, semantic shift, cognitive model, national-cultural concept, adequacy and equivalence, comparative analysis, conceptual mismatch.

## QUR'ONI KARIMDA METAFORANING QO'LLANILISHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARDA LINGVISTIK VA TARJIMA TAHLILI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qur'oni karim metaforalarining lingvistik va kognitiv tabiati hamda ularning o'zbek va ingliz tillariga tarjima qilinish xususiyatlari tahlil qilinadi. Qur'on metaforalari murakkab abstrakt tushunchalarni obrazli va konseptual shaklda ifodalovchi muhim lingvistik vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda metaforalarning semantik tuzilishi, milliy-madaniy konseptlar bilan bog'liqligi hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan ma'no yo'qotilishi, semantik siljish va konseptual nomuvofiqlik holatlari aniqlanadi. O'zbek va ingliz tilidagi tarjimalar qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, metaforalarning adekvat ifodalanish muammolari yoritiladi. Maqola oxirida esa izlanish natijada kelingan xulosalar ifodalanadi. Foydalanilgan adabiyotlar 10 nomda sanab ko'rsatilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** Qur'oni karim, metafora, lingvistik tahlil, tarjimashunoslik, semantik siljish, kognitiv model, milliy-madaniy konsept, adekvatlik va ekvivalentlik, qiyosiy tahlil, konseptual nomuvofiqlik.